

**Toshkent davlat tibbiyot universiteti va Toshkent shahar 3-son tug'ruq
majmuasi o'rtasida
o'zaro hamkorlik aloqalari bo'yicha
SHARTNOMA № _____**

Toshkent shahri

2025-yil "____" _____

Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o'rinlarda - Universitet) Ustavi asosida ish yurituvchi rektor **Sh.A.Boymuradov** bir tomondan hamda **Toshkent shahar 3-son tug'ruq majmuasi** (keyingi o'rinlarda - Tug'ruq majmuasi) Nizomi asosida faoliyat olib boruvchi **bosh shifokor K.CH.Djumabaev**, boshqa tomondan (keyingi o'rinlarda - Tomonlar) quyidagilar xususida mazkur shartnomani (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) tuzdilar:

1. Shartnomaning maqsadi

Shartnomaning maqsadi 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-sonli Farmonlari va 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli, 2017-yil 5-may "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-sonli, 2017-yil 27-iyul "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli, 2025-yil 22-apreldagi "Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi PQ-149 sonli qarorlari hamda ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga oid boshqa qonunchilik hujjatlariga mos holda ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash dasturlari asosida sifatli ta'lim berish bo'yicha hamkorlikdagi qo'shma dastur yaratish hisoblanadi.

2. Shartnomaning predmeti

Shartnoma predmeti deb, Toshkent shahar, Olmazor tumani, Taxtapul Darvoza ko'chasi, 351- uyda joylashgan **shahar 3-son tug'ruq majmuasida** tashkil etilgan klinik o'quv bazada Universitetning akusherlik va ginekologiya kafedrası (keyingi o'rinlarda - Kafedra) professor o'qituvchilari, talabalar, magistrlar, klinik ordinator, doktorant, mustaqil izlanuvchilar va malaka oshirish kursantlarining o'quv jarayonlari va amaliy mashg'ulotlari bilan birgalikda davolash, jarrohlik va boshqa invaziv hamda noinvaziv diagnostika muolajalarini bajarish, ilmiy-tadqiqot va amaliyot tadbirlarini tashkil etish, ishlab chiqish va amaliyotga tadbiriq etishni qonunchilikda belgilangan tartibda joriy qilish.

3. Hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish shakllari

3.1. Mazkur shartnoma doirasida Tomonlar quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadilar:

- Tug'ruq kompleksida Universitetning klinik kafedra xodimlari, talabalar, magistrlar, klinik ordinator va malaka oshirish kursantlarining o'quv jarayonlari

amaliy mashg'ulotlari va malaka amaliyotlari bilan birgalikda davolash diagnostika yo'nalishlarida ishtirok etadilar;

- konsultatsiyalar o'tkazish, konsiliumlarda ishtirok etish, klinik muhokamalar o'tkazish, bemorlar ko'rigida ishtirok etish, ekspertiza ishida ishtirok etish (tibbiy yordam sifatini nazorat qilish tizimi bo'yicha kasallik tarixini ekspert baholash),

- klinik va anatomik konferentsiyalarda ishtirok etish (rahbar yoki ekspert sifatida), o'lim natijalarini o'rganish bo'yicha komissiyada ishlash (ekspert sifatida), o'lim holatlarini tahlil qilish bo'yicha tibbiy-nazorat komissiyalarida ishlash (ekspert sifatida), autopsiyalarni o'tkazish, seksion va biopsiya materiallari bilan ishlash; tekshiruvlar o'tkazish, kasallik tarixlarini ko'rib chiqish, jarrohlik va boshqa invaziv hamda noinvaziv diagnostika muolajalarini bajarish, qo'shma tibbiy anjumanlarda ishtirok etish va h.k.

- mavjud bo'lgan ta'lim dasturlari bo'yicha Universitetda bakalavr, magistr, klinik ordinator va doktorantlarni tayyorlash uchun o'quv amaliyotlari va ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish;

- mamlakatimizga yuqori malakali raqobatdosh kadrlarni tayyorlash yuzasidan Kafedra va Markaz ning soha yo'nalishlari bo'yicha amaliy va ilmiy faoliyat olib borish;

- Universitet va Markaz ning o'zaro samarali hamkorligini yo'lga qo'yish;

- Markazning malakali mutaxassislari ba Universitet professor-o'qituvchilari erishgan yutuqlarni tizimli o'rganib borilishini tashkil etish maqsadida malaka oshirish va tajriba almashuvini joriy qilish;

- rivojlangan xorijiy davlatlarning tibbiyot sohasidagi eng ilg'or tajribalarini o'rgangan hamda Markaz ning mutaxassislarga bo'lgan talabidan kelib chiqqan holda o'quv rejalari, fan dasturlari, o'quv adabiyotlari shu jumladan, o'quv-metodik komplekslarni xalqaro standartlar asosida zamonaviy, mutlaqo yangi talablar asosida ishlab chiqilishi va bosqichma-bosqich joriy etilishini tashkil qilishni o'zaro hamkorlikda amalga oshirish;

- Universitetning ta'lim yo'nalishida zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini hamkorlikda bajarish va tatbiq etish;

- hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni nashr qilish;

- hamkorlikda seminarlar o'tkazish;

- Markazda talabalar amaliyotini tashkil etish hamda bo'sh ish o'rinlariga bitiruvchilarni ishga joylashtirish choralarini ko'rish;

- Universitet professor-o'qituvchilariga Markaz da ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishiga sharoit yaratib berish;

- hamkorlikda Markaz ning istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;

- Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirishda hamkorlik qilish.

4. Muvaffaqiyatli hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar

4.1 O'quv-amaliy ta'lim, ilmiy, davolash, jarrohlik va boshqa invaziv hamda noinvaziv diagnostika muolajalarini bajarish, ilmiy-tadqiqot va malaka amaliyotlarini tashkil etish, ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishda tomonlarning hamkorligi:

- Tug'ruq majmuasida qo'llaniladigan zamonaviy tibbiy texnologiyalar, uskunalar va jihozlarni o'rganish va amaliyotda qo'llash;

- amaliy va uslubiy ma'lumotlarni o'zaro almashinuvini olib borish.

4.2 Hamkorlikdagi o'quv-amaliy, ilmiy-amaliy va tadqiqot ishlarini o'tkazish, maqolalarni chop etish shaklida bajariladi.

5. Shartnomani bajaruvchi va bevosita ishtirokchilari

5.1. Mazkur shartnoma shartlarini bajarishda Universitet tomonidan Kafedra xodimlari, shuningdek zaruriyat bo'lganda boshqa kafedra va bo'limlar xodimlari hamda o'quv-ta'lim faoliyatini tashkil etish, o'tkazish va ta'minlashga bevosita aloqasi bo'lgan boshqa shaxslar ishtirok etadi.

5.2. Mazkur shartnomani amalga oshirishda Tug'ruq majmuasi tomonidan manfaatdor bo'lgan davolash-tashxislash bo'linmalari va boshqa tibbiyot xodimlari, shuningdek davolash-profilaktik faoliyatni tashkil etish va ta'minlashga aloqador bo'lgan ma'muriy-boshqaruv xodimlari bevosita ishtirok etadi.

5.3. Universitet va Tug'ruq majmuasining rahbariyati manfaatdor xodimlarni barcha zarur bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash va ular tomonidan ushbu shartnomaning talablari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etish majburiyatini oladi.

5.4. Tomonlar turli kasalliklarni o'rganish yuzasidan hamkorlikda ilmiy tadqiqotlarni olib borish majburiyatini oladilar.

5.5. Hamkorlik doirasida Tomonlar qo'yilgan maqsadga erishish uchun ilmiy-amaliy ishlarini o'rganish hamda bajarish yuzasidan zaruriy materiallarni yig'ish bo'yicha kelishuv pozitsiyasini ishlab chiqishga mas'uldirlar.

5.6. Tomonlar hamkorlikda izlanish olib borayotgan mavzu bo'yicha birgalikda o'quv adabiyotlari (shu jumadan hammualliflikda darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma, elektron darslik) va maqolalar tayyorlash hamda nashrdan chiqarish majburiyatini oladilar.

5.7. Tomonlar hammualliflikdagi o'quv-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etadilar.

5.8. Shifokor siri va xizmat ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlaydilar, oshkora qilmaslik talablariga qat'iy rioya etadilar.

6. Universitet va Kafedraning huquq va majburiyatlari:

6.1. Universitet hamkorlikdagi tibbiy o'quv-ta'lim, davolash, jarrohlik va boshqa invaziv hamda noinvaziv diagnostika muolajalarini bajarish va ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

6.2. Universitet hamkorlikdagi o'quv-ta'lim va ilmiy-amaliy faoliyatni amalga oshirishda Kafedra va Tug'ruq majmuasi xodimlari, shuningdek ta'lim oluvchilarni zaruriy resurslar (insonlarga bog'liq bo'lgan, moddiy-texnik, axborot va boshqalar) bilan ta'minlaydi.

6.3. Kafedra o'z xodimlari, talabalar, magistr, klinik ordinator, doktorant va ilmiy izlanuvchilar tomonidan Tug'ruq majmuasining barcha xizmat va tibbiy ma'lumotlarning maxfiylik talablariga rioya etish majburiyatini oladi.

6.4. Universitetning majburiyatlari:

- ta'lim oluvchilar Tug'ruq majmuasining ichki tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilishi majburiy hisoblanadi;

- hamkorlikda turli kasalliklar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib boradi;

- ilmiy izlanishlar natijalarini tahlil qilib, ular bo'yicha to'plangan hujjatlarni nashrdan chiqarishga tayyorlaydi;

- hamkorlikda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan to'plangan ma'lumotlar bo'yicha maqola, darslik, o'quv qo'llanma, tezis, monografiyalar yozish va ularni Tug'ruq majmuasi bilan hammualliflikda nashrdan chiqarish, Tug'ruq majmuasi bilan birgalikda ilmiy-amaliy konferensiya, syezd va seminarlarda ma'ruzalar bilan chiqish qilish;

- hamkorlikdagi tibbiy o'quv-ta'lim, davolash, jarrohlik va boshqa invaziv hamda noinvaziv diagnostika muolajalarini bajarish, ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatni tashkil etish va o'tkazishda amaldagi qonunchilikda belgilangan mualliflik huquqlarini himoya qilish talablari va etika me'yorlariga rioya etish;

- shifokor siri va xizmat ma'lumotlarining maxfiyligini oshkor etmaslik talablariga qat'iy rioya etish;

- mazkur shartnomaning shartlarini to'liq va samarali bajarish maqsadida mas'ul xodimlarni tayinlaydilar.

7. Tug'ruq majmuasining huquq va majburiyatlari:

7.1. Tug'ruq majmuasi hamkorlikdagi o'quv-ta'lim, tibbiy, davolash va ilmiy-amaliy faoliyatini tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etadi.

7.2. Hamkorlikdagi o'quv-ta'lim, davolash va ilmiy-amaliy faoliyatni olib borishda Tug'ruq majmuasi:

- o'quv dasturiga mos holda Universitetda faoliyat yuritib kelayotgan va ta'lim olayotganlarga Tug'ruq majmuasidagi maxsus tibbiyot uskunalaridan foydalanishga hamda davolash jarayonlarida ishtirok etishga sharoit yaratadi;

- Tug'ruq majmuasiga oid yangiliklar, rivojlantirish istiqbollari, ta'lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan Universitet professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, doktorantlari, klinik ordinator, mustaqil izlanuvchilari va talabalari bilan uchrashuvlar o'tkazib borishga sharoit yaratadi;

- Universitet professor-o'qituvchilariga Tug'ruq majmuasida auditoriya va ma'ruza zallarini jihozlashda amaliy yordam beradi va ilmiy-amaliy tadqiqotlar o'tkazishga sharoit yaratadi;

- ta'tillar davrida Universitetda tahsil olayotgan talaba va magistr, klinik-ordinatorlarga Tug'ruq majmuasida ishlab chiqarish amaliyotini olib borishga sharoit yaratadi;

- ta'lim oluvchilar tomonidan yuqorida ko'rsatilgan talablarga rioya etish ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- mazkur shartnomaning shartlarini to'liq va samarali bajarish maqsadida mas'ul xodimlarni tayinlaydi.

7.3. Tug'ruq majmuasi hamkorlikdagi tibbiy o'quv-ta'lim, malaka amaliyotlari, davolash, ilmiy-amaliy faoliyatni tashkil etish va o'tkazishda Tug'ruq majmuasi xodimlari tomonidan amaldagi qonunchilikda belgilangan mualliflik huquqlarini himoya qilish talablari va etika me'yorlariga rioya etilishini o'z zimmasiga oladi.

8. Tashkiliy-moliyaviy o'zaro munosabatlar

8.1. Mazkur Shartnoma tashkiliy-huquqiy majburiyatlarni nazarda tutadi va Tomonlarning moliyaviy majburiyatlarini ko'zda tutmaydi.

8.2. Hamkorlikdagi tadbirlar va majburiyatlarni bajarishda moliyaviy majburiyatlar yuzaga kelganda ushbu moliyaviy munosabatlar Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha alohida shartnomalarda aks ettiriladi.

8.3. Qo'shma o'quv-ta'lim, davolash va ilmiy-amaliy tadbirlarni o'tkazishda mazkur jarayonlarda ishtirok etayotgan Kafedra xodimlari Tug'ruq majmuasining tegishli lavozimlariga qabul qilinishlari mumkin. Tug'ruq majmuasi xodimlari esa Kafedraning professor-o'qituvchilari va ilmiy tarkibiga o'rindoshlik asosida Tomonlarning o'zaro kelishuvi bo'yicha lavozimlariga qabul qilinishi mumkin.

8.4. Hamkorlikdagi ilmiy-tadqiqotlar natijalari shartnoma doirasida qo'shma yutuqlar deb hisoblanadi va nashrlarda taraflar nomidan rasmiylashtiriladi (qo'shimcha tadqiqotlar taraflaridan birining alohida nashr etilishiga faqat ikkinchi tomonning roziligi bilan yo'l qo'yiladi).

8.5. Zarur hollarda Tomonlar nomidan birgalikda qilingan ixtirolarga buyurtma rasmiylashtiriladi.

9. Uchinchi tomonning ishtiroki

Mazkur shartnoma bo'yicha o'quv va/yoki amaliy jarayonni texnik va tashkiliy-texnik ta'minotidan tashqari, hamkorlikdagi o'quv-ta'lim, davolash va ilmiy faoliyatni amalga oshirishda uchinchi tomonlarning ishtirokini ko'zda tutmaydi.

10. Shartnoma ishtirokchilarining javobgarligi

10.1. Tomonlardan birining zimmasiga olgan majburiyatni bajarmaslik holatlarida, shartni bajarish lozim bo'lgan sanadan 10 kundan kam bo'lmagan muddatda, majburiyatni bajarmaslik sababini ko'rsatgan va ushbu sabablarni bartaraf etishga qaratilgan rejali chora-tadbirlarni keltirilgan holda ogohlantirish xatini yuborishi shart.

10.2. Shartnoma shartlarini, shu jumladan "Tomonlarning kelishuvi" bo'yicha shartlarni bajarmaslik O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonunchilikka asosan javobgarlik keltirib chiqaradi.

11. Favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major)

11.1. Favqulodda (fors-major) holat yoki yengib bo'lmaydigan kuchlar ta'siri natijasida (yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqalar) vujudga kelgan vaziyatni ishtirokchi oldindan ko'rolmagan yoki uning oldini olish imkoniyati mavjud bo'lmaganida, Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik bo'yicha javobgarlikdan qisman yoki to'liq ozod qilinadilar.

11.2. Majburiyatni bajarmaslikda favqulodda holatlarga ishora qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday vaziyatlarning boshlanishi haqida darhol xabardor qilishi lozim.

11.3. Agarda mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik holati, yengib bo'lmaydigan kuchlar bilan bog'liq holda 6 oydan ko'proq davom etsa, Tomonlardan biri ikkinchi Tomonni bu to'g'risida xabardor qilib bir taraflama mazkur shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

12. Shartnomani amal qilish muddati

12.1. Mazkur shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab kuchga ega bo'ladi.

12.2. Ushbu shartnomani amal qilish muddati 2029-yil 31-dekabrga qadar davom etadi.

12.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilinishi bir Tomonning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin, bunda, boshqa Tomonga bu to'g'risida shartnomani bekor qilinishidan 2 oy oldin xabar berilishi kerak. Mazkur muddatni tugashi bilan har ikki Tomonning kelishuviga ko'ra shartnoma bekor qilingan deb hisoblanadi.

12.4. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng yuridik kuchga ega.

13. Tomonlarning yuridik manzillari

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
100109, Toshkent sh., Farobiy ko'chasi, 2
uy.

Tel.: +99878 150-78-25

**Toshkent shahar 3-son tug'ruq
majmuasi**

100016, Toshkent sh., Olmazor
tumani, Taxtapul Darvoza ko'chasi,
351 uy.

Tel.: +998 71 226 72 00

Rektor _____



**Davolash ishlari bo'yicha
prorektor** _____

Sh.A. Baymurodov

**Klinik o'quv bazalar bilan ishlash bo'limi
boshlig'i** _____

D.A. Parpibayeva

**Marketing va talabalar amaliyoti
boshqarmasi boshlig'i** _____

**Akusherlik va ginekologiya kafedrası
mudiri** _____

Shukurov F.I.

Yuridik bo'lim

boshlig'i _____

S.M. Yusupova

Bosh shifokor _____



K.Ch. Djumayev